

### **3-mavzu: "Opa-singillar "(hikoya)**

#### **Darsning maqsadi:**

- a) ta'limiy:** o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.
- b) tarbiyaviy:** o`quvchilarga har bir insonni, uning kasbini va mehnatini qadrlashni o`rgatish, o`quvchilarni har bir insonga hurmat ruhida tarbiyalash.
- c) rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi dars.

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish,"Aqliy hujum" metodi,savol-javob,ta'limiy o`yinlar.

**Dars jahozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

#### **Darsning borishi:**

##### **I.Tashkiliy qism:**

Salomlashish.

O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkazish

##### **II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "Salom, maktab!" she'rini o`quvchilar yoddan aytib beradilar. Savol-javob o`tkaziladi.

1.Maktab qanday joy?

2.Sherda maktabga qanday ta`rif berilgan?

3.Zamonaviy maktab qanday bo`lishi kerak deb o`ylaysiz?

##### **III.Yangi mavzu bayoni.**

-Jamiyat hayotidagi eng muhim kasb qaysi deb o`ylaysiz?

-Sizningcha, keraksiz kasblar ham bo`ladimi? Fikringizni izohlang.

Savollarga javob olinadi va bugungi mavzu e`lon qilinadi: **"Opa-singillar" hikoyasi.**

Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

### **Lug`at ishi:**

**Attang** – afsuslanish

**Ajablanish-** hayron bo`lish

"Opa-singillar" hikoyasi o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

**"Bu qiziq!"** O`quvchilar darslikda berilgan qiziqarli savollarning javobini topadilar.

### **Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.**

Harakatli dam olish daqiqasida o`quvchilar birgalikda bajaradilar.

Dada, dada, bolg'acha

Mixni bering qo`limga,

Bering qo`limga.

Sozlab yasayin.

Otcha ysab minayin,

Ishonaman o`zimga

Tushsin o`yinga.

Kattargan sayin.

### **IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

#### **Savollar:**

**1.Opa-singillarning ismini ayting?**

**2.Ularni kim kuzatib turgan edi?**


**3.Qariya nima uchun ularga tanbeh berdi?**

**4.Qizlar nima deb javob berishdi?**

**”Topib o`qi“ mashqi.** Hikoyada qariyaning kasb haqidagi gaplarini topib o`qing.

### Mashq daftar bilan ishslash.

**1-topshiriq.** Matnni tahlil qiling.



**2-topshiriq.** Berilgan gaplarning to`g`ri yoki noto`g`ri ekanini aniqlang. To`g`ri gaplarga ✓, noto`g`ri gaplarga ✗ belgisini qo`ying.

- ✗ Madina va Maftuna ismli ikki dugona bor edi.
- ✓ Ular juda qiziquivchan edilar.
- ✓ Bir kuni qizlar hovliga, undan ko`chaga chiqib o`ynashdi.
- ✗ Madina konfetning qog`ozini yerga tashlamadi.
- ✓ Ularni kuzatib turgan qariya attang qilgancha boshini chayqadi.
- ✓ „Men malika bo`laman!“ – dedi Madina.
- ✓ Qizlar esa qariyaning gapini tushunmay, o`ylanib qolishdi.

**3-topshiriq.** Hikoyadagi so`roq gaplarni ko`chirib yozing.

Nima sababdan?

Nimaga?

Sizlar kimning qizisiz?

Ko`chani iflos qilyapsiz-ku, bu ishingiz to`g`rimi?

Kasb? U nima? U mazalimi? Kattami?


Nima uchun u shunday nomlangan?

Siz kasb nima ekanligini bilmaysizmi?

**4-topshiriq.** Tushirib qoldirilgan so`zlarni yozing.

- Sizlar kimning **qizisiz**? Ko`chani iflos qilyapsiz-ku, bu ishingiz **to`g`rimi**?
- Men **malika** bo`laman! – dedi Madina.
- Men ham malika bo`laman! – kulib tasdiqladi **Maftuna**. – Har bir qiz malika bo`lishni **orzu qiladi**, – deb javob berdi qariya.
- Ammo malika o`z yurtini, xalqining **mehnatini** qadrlaydi. O`sib-ulg`aygan joyini xor **qilmaydi**. Har bir insonni, uning **kasbini** hurmat qilishi lozim, – deb nasihat qildi qariya.

**5-topshiriq.** 1-ustundagi so`zlarni 2-ustundagi mos so`zlar bilan bog`lang.



## **V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

### **Savol-javob o`tkaziladi.**

- Opa-singillar sizlarga yoqdimi?

-Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

## **VI.Uyga vazifa berish.**

Hikoya mazmunini so`zlab berish.

### **4-mavzu: "Oyog`i osmonda bo`lgan sichqonlar" (Roald Dal)**

#### **Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiy:** o`quvchilarni matn bilan tanishtirish, matn mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga kashfiyat va ixtirolarning foydali tomonlarini tushuntirish, ularni ziyrak va sezgir bo`lishga o`rgatish.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat,tushuntirish,"Klaster" metodi, ta'limiy o`yinlar.

**Dars jahozi:** Rangli rasmlar,tarqatma materiallar

#### **Darsning borishi:**

### **I.Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash.Ma`naviyat daqiqasi o`tkazish.

### **II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "**Opa-singillar**" hikoyasini o`quvchilar ifodali o`qib,mazmunini qayta hikoyalab beradilar.